

O'ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ECHIMLARI

Saidova Subhinigor Azizovna

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Bank ishi" kafedrası tayanch doktoranti*

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy rivojlanishida ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston 2030 strategiyasi doirasida xotin-qizlarni huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etishga qaratilgan keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha 4 bosqichli yangi tizimni yo'lga qo'yilishi belgilangan [1]. Bunda tadbirkorlikka qiziqqan ayollar dastlab o'qitiladi, keyin ular banklar ko'magida kichik tadbirkorga aylanadi. Tijorat banklari tomonidan ularga qulay moliyaviy paketlar taqdim etiladi.

Birinchi bosqichda biznesga qiziqqan, lekin ko'nikmasi bo'lmagan 20 ming nafar xotin-qiz tadbirkorlikka o'qitiladi. Bunga Savdo-sanoat palatasi mas'ul bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda "Xalq banki" o'zini o'zi band qilgan 100 ming nafar ayolning kichik tadbirkor bo'lishi uchun ko'maklashadi.

Uchinchi bosqichda har bir tumanda 2 tadan kichik korxonani namunali o'rta biznes darajasiga olib chiqishga "Hamroh" kompaniyasi mas'ul bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda Savdo-sanoat palatasi eng faol 50 nafar ayol tadbirkorni yillik aylanmasi 100 milliard so'mdan oshadigan "champion tadbirkor"ga aylantiradi.

Davlatimiz rahbari SH. M. Mirziyoyev ayollarga hunar o'rgatish va ayollar orasida ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan choralar haqida alohida to'htalib, bu borada quyidagilarni ta'kidlab o'tdi, "2025-yilda 2 million ayollar bandligini ta'minlash, shundan 1 million 300 ming nafar xotin-qizni tadbirkorlikka jalb etish rejalashtirilgan [2]."

2024-yilning boshida O'zbekiston aholisi 36799 ming kishiga yetdi va 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 2,2 foizga yoki 775 ming kishiga oshdi. Aholi orasida ayolarning ulushi 49,7 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda ayollar orasidagi ishsizlik darajasi so'nggi paytlarda ortib borayapti. Ayollar orasidagi yuqori ishsizlik ko'rsatkichlari va past iqtisodiy faollik darajasi bir tomondan yuqori tug'ilish ko'rsatkichlari va ayollarning uy ishlariga ko'p vaqt ajratishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan aholi mentaliteti bilan ham bog'liq [3].

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 17 mln.dan ziyod qismini xotin-qizlar tashkil etadi, tadbirkorlikda ayollarning ulushi esa kichik biznes vakillari umumiy sonining 25 foiziga teng. Ushbu yo'nalish oldida turgan ustuvor vazifalardan biri tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida xotin-qizlar ulushini 40 foizga yetkazishdir.

Hozirda, asosiy muammolardan biri tadbirkor ayollarni moliyalashtirishdagi ta'minotning yetishmovchiligi hisoblanadi. Tegishli moliyaviy yordamsiz ko'plab ayollar o'z bizneslarini boshlay olmasliklari muammosi mavjud va ushbu muammoni hal qilish uchun hukumat va moliya institutlari ayollarning kapitalga kengroq kirishini ta'minlash chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Yana bir muammo – ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi muammolar va to'siqlar haqidagi ma'lumot va xabardorlikning yetarli emasligidir. Moliyaviy savodxonlik dasturlari ayollarga o'z moliyasini qanday boshqarishni va o'zlarini diskriminatsiyadan himoya qilishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Qolaversa, oilalarga ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishning ahamiyati haqida ma'lumot berish mavjud to'siqlarni bartaraf etishga va ayollarning biznesda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Xotin-qizlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish borasida 2018-yildan buyon oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, joriy yilning yanvar-avgust oylarida qariyb 194 mingga yaqin aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan 3,3 trln so'm miqdoridagi imtiyozli kredit mablag'larining 1,6 trln so'mi (49 foiz) 109 mingga yaqin ayol tadbirkorlarga taqdim etilgan.

Ayollar bandligini ta'minlash va ularning tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarga e'tibor afritish maqsadga muvofiq bo'ladi:

ayollar uchun moslashuvchan ish jadvali va masofadan turib ishlash tizimini rivojlantirish, bunday ish o'rinlarini taklif etuvchi ish beruvchilarga maxsus soliq imtiyozlarini joriy etish;

yuqori maosh taklif etiladigan axborot texnologiyalari, moliya va sug'urta tarmoqlarida xodimlar orasida gender tengligini (kamida 30 foizni ayollar tashkil etgan) ta'minlagan ish beruvchilar uchun maxsus soliq va kreditlar bo'yicha imtiyozlar berish;

ayollar uchun mahallalarda raqamlashtirish savodxonligini oshirish va ijtimoiy media marketing kurslarini tashkil etish;

Ko'plab tadbirkor ayollar qishloq joylarda mehnat qilishi va ayollar

tadbirkorligini “yashil iqtisodiyot” orqali rivojlantirish, ayollarning yanada faol ishtirok etishi uchun katta salohiyatga egaligi bilan alohida amiyatga molik sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://kun.uz/news/2025/03/08/5-nafar-ayolni-biznesga-olib-kirgan-tadbirkorga-50-mln-somgacha-grant-ajratiladi?ysclid=m8bxa1x8ai451990740>
2. Shavkat Mirziyoyev Ko'ksaroyda 8-martga bag'ishlangan nutq 07.03.2025. <https://oz.sputniknews.uz/20250307/shavkat-mirziyoev-koksaroyda-8-martga-bagishlangan-nutq-sozladi-48284272.html?ysclid=m8bw74ecj5602386877>
3. O'zbekistonda ayollar orasidagi ishsizlik sabablari 6 mart 2024 y. https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/ayollar_ishsizligi